



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

BELARUS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
RESEARCH CONFERENCE



**BELARUS International scientific-online conference
"INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE"**

Part 20

January 19th

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

MINSK-2024

INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE: a collection of scientific works of the International scientific online conference (20th January, 2024) – BELARUS, MINSK : "CESS", 2024. Part 20 – 188p.

Chief editor:

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, belorus казакша, о'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

"INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE". Which took place in MINSK on January 20th, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024
© Authors, 2024

JAMIYATLARINI YANADA RIVOJLANTRISH	
Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi	150
<i>DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</i>	
Xolmirzayeva Gulbahor Mutalibovna	153
<i>MATEMATIKA TA'LIMIDA FANLARARO ALOQADORLIK</i>	
Abdullayeva Xurshida Shoqosim qizi	156
<i>MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT KOMUNIKATSION</i>	
<i>TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	
Tursunov Mirzo Mahmudovich	161
Egamova Shahnoza Asrorovna	
<i>INGLIZ TILIDA "HAYOT" VA "O'LIM" KONSEPTLARINING INING FRAZELOGIK BIRLIKLER ORQALI IFODALANISH USULLARI</i>	
Axmedova Sarvinoz Hikmatovna	164
Rakhimova Nargiza Baxshillayevna	
<i>INGLIZ VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATLARIDAGI STEREOTIPLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</i>	
Yuldasheva Aziza	167
<i>"IOGAN SEBASTYAN BAXNING ORGAN VA KLAVESIN UCHUN YOZGAN ASARLARI"</i>	
Худойбердиев Феруз Шамшодович	172
Мирзамуратов Максуджон Фарход угли	
Назаров Ибрагим Хасан угли	
<i>МЕРЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ ПРОДУКТИВНОСТИ ПРИРОДНЫХ ПАСТБИЩНЫХ РЕСУРСОВ ПРИ ЭФФЕКТИВНОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ</i>	
Qudranov Azizbek Dehqonboyevich	176
Tuxtayev Elbek Ramol O'g'li	
Xoliqov Avazbek Abdujalil O'g'li	
<i>AGRAR SOHANI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION</i>	
<i>TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI</i>	
Qodirov Abbas Qosimovich	181
Nabiyev Hurmatillo	
<i>QISHLOQ XO'JAIGIDA TOMCHILAB SUG'ORISH TEXNOLOGIYALARI UNING AHAMIYATI</i>	
Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	185
Jumanazarov Bekzod Sherzod o'g'li	
<i>CHO'LLASHISH VA QURG'OQCHILIKGA QARSHI KURASHISH YO'LLARI</i>	

CHO'LLASHISH VA QURG'OQCHILIKGA QARSHI KURASHISH YO'LLARI

Boltayeva Shaxnoz Bebudovna

BuxDu katta o`qituvchisi

Jumanazarov Bekzod Sherzod o'g'li

BuxDu, "Agrobiznes va investitsion faoliyat" ta`lim yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Cho'llashish va qurg'oqchilikga qarshi yoritildi. Shuningdek ushbu muammoning kelib chiqishi sabablari, va aholining turmush tarziga va mamlakat tabiatiga keltiradigan zarar va ularni kamaytirish usulari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: cho'llashish, qurg'oqchilik, suvsizlik, isrofgarchilik.

Shuningdek, o'rmon fondi yerlaridan tashqari qishloq xo'jaligining sug'oriladigan yerlari meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligi obyektlarini qum bosishdan himoya qilish maqsadida tizimli ravishda ihota daraxtzorlari barpo qilish ishlari olib borilmoqda. Ushbu dasturga asosan 2019-yilda 2495 hektar va 2020-yilda 2000 hektarga yaqin maydonlarda ihota daraxtzorlari barpo etilgan. Prezidentimizning 2019-yil 23-avgustdagagi qarori bilan 2020 — 2024-yillarda qishloq xo'jaligiga qarashli sug'oriladigan yerlarda shartnoma asosida 12 ming hektar maydonda ihota daraxtzorlari barpo etish davlat dasturiga kiritilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, sohada qo'lga kiritilgan ijobiy yutuqlar bilan bir qatorda, ayrim muammolar hamda yo'l qo'yilgan. Xususan, sohada davlat-xususiy sheriklik, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilmagan. Innovatsion loyihibar ishlab chiqarishga keng tatbiq etish, mahalliy aholini cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish ishlariga jalb etish va ular xabardorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Boz ustiga, global iqlim o'zgarishi sharoitida cho'llanish va qurg'oqchilik jarayonlari tabiiy ravishda tezlashar ekan, jamiyatning kelgusidagi barqaror rivojlanishi hamda ekologik xavfsizligi insoniyat ushbu jarayonga qarshi kurashishning innovatsion, kreativ yondashuvlariga uzviy bog'liq bo'lib qoladi. Shunday ekan, O'zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida global iqlim o'zgarishi shariotida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha barcha choralarni ko'rishi lozim.

BMT tomonidan 1994-yildan e'tiboran 17-iyun — Umumjahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish kuni deb e'lon qilingandan boshlab jahonda ushbu kung keng nishonlanib kelinmoqda. O'zbekiston Osiyo mintaqasida birinchilardan bo'lib, Konvensiyaga a'zo bo'lgan davlatlardan hisoblanadi va ushbu Konvensiya 1995-yil 31-avgustda O'zbekiston Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilinib, 1996-yildan kuchga kirdi. Bugungi kunda mazkur Konvensiyaga 196 ta davlat a'zo. Yer maydonlarida qurg'oqchilik va cho'llanish muammoi bugungi kunda barcha xalqaro jamoatchilik, yer egalarining, ilmiy dargohlarning va siyosatshunoslarning doimiy diqqat-e'tiborida.

Qurg‘oqchilik va cho‘llanish butun insoniyatga ijtimoiy, iqtisodiy zarar keltirib, dunyo miqyosida ekologik tahdid xavf solmoqda. Har yili dunyoda 17 iyun – Jahon cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurash kuni sifatida nishonlanadi.

Qurg‘oqchilik – ekinlarning hosildorligini yo‘qolishi, o‘rmon yong‘inlari va suv tanqisligi natijasida insonlar hayotining barbod bo‘lishi nuqtai nazardan eng daxshatli tabiiy ofatlardan biridir.

Yerning tanazzulga uchrashi va iqlim o‘zgarishi natijasida kuchaygan qurg‘oqchilik shiddatli tus olmoqda. Bu 2000 yilga nisbatan 29 foiz ko‘p va har yili 55 million kishiga ta’sir qiladi. 2050 yilga borib qurg‘oqchilik dunyo aholisining to‘rtdan uch qismiga ta’sir qilishi mumkinligi bashorat qilinmoqda. Shu bois bu global va dolzarb muammo hisoblanadi.

So‘nggi qurg‘oqchilik dunyo uchun xavfli kelajakka ishora qilmoqda. So‘nggi yillarda oziq-ovqat va suv tanqisligi, kuchli qurg‘oqchilik tufayli yuzaga kelgan o‘rmon yong‘inlari kuchaygan.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning 70 foizi yoki 31,4 mln. hektar yeri qurg‘oqchil maydonlardan iborat bo‘lib, ular asosan tabiiy sho‘rlangan, ko‘chma barxan qumliklar va qumliklardan iborat cho‘l hamda issiq garmsel shamollari ta’siridagi hududlardan iboratdir. Orol dengizi suv sathining qurishi tufayli O‘zbekistonda yana qo‘srimcha 3 mln. hektardan ortiq maydonda «Orolqum» sahrosi paydo bo‘ldi. Natijada ushbu hududda ekologik muhit yomonlashib, cho‘llanish jarayonlari yana-da kuchaydi va ko‘plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi.

Mazkur Konvensiya doirasida O‘zbekiston tomonidan olingan majburiyatlar yuzasidan keng chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Aytish joiz, O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi mazkur konvensiya doirasida amalga oshiriladigan majburiyatlar yuzasidan mas’ul organ, deb belgilangan.

Xalqaro huquq normalariga ko‘ra, atrof-muhit muhofazasi, xususan, yer resurslari muhofazasi va ulardan oqilona foydalanish tizimini yana-da takomillashtirish davlatning birinchi darajali vazifasi sifatida e’tirof etilgan. Mamlakatimizda sohada qonunchilik bazasi yaratilib, uni takomillashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurash ishlarni samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish bo‘yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi.

O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi tomonidan 2019 — 2023-yillarga mo‘ljallangan «yo‘l xaritasi» ishlab chiqildi va Hukumat tomonidan tasdiqlandi.

Bugungi kunda sohada ushbu „yo‘l xaritasi”ga asosan tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, orol dengizining qurigan hududida 2019-yilda 501 ming hektarda, 2020-yil bahorida 703 ming hektar maydonda ko‘chma qumlarni mustahkamlash maqsadida o‘rmon barpo etish tadbirlari amalga oshirildi. Jahon cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish kuni sharafiga O‘zbekistondagi FAO vakolatxonasi tomonidan o‘rmon xo‘jaligi ilmiy tadqiqot institutida, O‘zbekiston Respublikasi o‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi bilan birgalikda anjuman tashkil etildi.

Buxoro viloyatidagi Qizilqum cho‘llariga tutash hududlaridagi sug‘oriladigan yerkarni hamda infratuzilmasini qum bosishidan saqlash maqsadida 200 ming hektardan ortiq maydonda, Buxoro shahri atrofida “yashil qalqon” yaratish maqsadida saksovulzorlar barpo etish bo‘yicha ishlar jadal olib borilmoqda. “Yo‘l xaritasi” bo‘yicha Navoiy viloyatining Nurota tog‘ oldi yerlaridagi ochiq bo‘sh maydonlarda 10 ming hektar maydonda pista plantatsiyalari tashkil etish bo‘yicha choralar ko‘rilmoxda.

Buxoro viloyatidagi Qizilqum cho‘llariga tutash hududlaridagi sug‘oriladigan yerkarni hamda infratuzilmasini qum bosishidan saqlash maqsadida 200 ming hektardan ortiq maydonda, Buxoro shahri atrofida “yashil qalqon” yaratish maqsadida saksovulzorlar barpo etish bo‘yicha ishlar jadal olib borilmoqda. “Yo‘l xaritasi” bo‘yicha Navoiy viloyatining Nurota tog‘ oldi yerlaridagi ochiq bo‘sh maydonlarda 10 ming hektar maydonda pista plantatsiyalari tashkil etish bo‘yicha choralar ko‘rilmoxda.

Shuningdek, o‘rmon fondi yerlaridan tashqari qishloq xo‘jaligining sug‘oriladigan yerkari meliorativ holatini yaxshilash, suv xo‘jaligi obyektlarini qum bosishdan himoya qilish maqsadida tizimli ravishda ihota daraxtzorlari barpo qilish ishlari olib borilmoqda. Ushbu dasturga asosan 2019-yilda 2495 hektar va 2020-yilda 2000 hektarga yaqin maydonlarda ihota daraxtzorlari barpo etilgan. Prezidentimizning 2019-yil 23-avgustdaggi qarori bilan 2020 — 2024-yillarda qishloq xo‘jaligiga qarashli sug‘oriladigan yerkarda shartnoma asosida 12 ming hektar maydonda ihota daraxtzorlari barpo etish davlat dasturiga kiritilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, sohada qo‘lga kiritilgan ijobiy yutuqlar bilan bir qatorda, ayrim muammolar hamda yo‘l qo‘yilgan. Xususan, sohada davlat-xususiy sheriklik, iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilmagan. Innovatsion loyihamlar ishlab chiqarishga keng tatbiq etish, mahalliy aholini cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish ishlariga jalb etish va ular xabardorligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalgalash maqsadga muvofiq.

Boz ustiga, global iqlim o‘zgarishi sharoitida cho‘llanish va qurg‘oqchilik jarayonlari tabiiy ravishda tezlashar ekan, jamiyatning kelgusidagi barqaror rivojlanishi hamda ekologik xavfsizligi insoniyat ushbu jarayonga qarshi kurashishning innovatsion, kreativ yondashuvlariga uzviy bog‘liq bo‘lib qoladi. Shunday ekan, O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida global iqlim o‘zgarishi shariotida cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish bo‘yicha barcha choralarni ko‘rishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

5. Hans X. Binsvanger-Mkhize va Jeyms G. Kramer tomonidan "Agrobiznes va jamiyat: ekologiya, bozor imkoniyatlari va davlat tomonidan tartibga solishga korporativ javoblar".

6. Jon Ikerdning "Agrobiznes iqtisodiyoti: nazariya, amaliyot va muammolar".

7. "Braziliyada agrobiznes va neoliberal oziq-ovqat tizimi: Global janubdagagi kapital

chegaralari" Jeffri Boyce.

8. Terri Marsden va Adrian Morli tomonidan "Agrobiznes va jamiyat: ekologiya, bozor imkoniyatlari va davlat tomonidan tartibga solishga korporativ javoblar".

5. Болтаева, Шахноз. "Modern Directions of Small Business and Entrepreneurship Development in Uzbekistan." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 20.20 (2022).р

6.Болтаева, Шахноз. "The role of Agrokultural marketing in the development of Uzbekisnan." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).р.